

O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK TUZULISHI VA UNING AHAMIYATI

¹Meyliyeva O'g'iloy Qo'chqor Qizi

Zarafshon tumani 6-maktab geografiya fani o'qituvchisi,

²Eshquvatova Gulnora Shirinboyevna

Zarafshon tumani 6-maktab geografiya fani o'qituvchisi,

³Qahhorova Qunduz Nurmamat Qizi

Zarafshon tumani 6-maktab geografiya fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7519280>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning geografik o'rni hamda iqlimi chegaradosh davlatlari va tabiati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: geografik o'rni , subtropic , geologik, joylashuvi /

O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra juda qulay . Chunki uning hududi Turkistonning markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga serob bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi . O'zbekistonning ko'p qismining tekislikdan iborat bo'lishi hamda serunum vohalarning Chirchiq - Ohangaron , Farg'ona , Zarafshon , Qashqadaryo , Surxondaryo , Quyi Amudaryoning mavjudligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bergan . O'zbekiston O'rta Dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir geografik kenglikda joylashgan . O'rta Dengiz atrofidagi mamlakatlar subtropikka xos landshaft bilan tavsiflanadi . Lekin O'zbekiston Illq okean va dengizlardan uzoqda , materik ichkarisida joylashganligi tufayli sharoiti jihatidan O'rta Dengiz atrofidagi davlatlardan butunlay farq qiladi . Chunki O'zbekiston hududining shimoliy qismi ochiq bo'lib , qishda shimoldan shimoli - sharqdan esuvchi sovuq , quruq havo oqimi bemalol ichki qismlarigacha yetib keladi . Aksincha , Janubda baland Tog'laming mavjudligi esa Hind okeanidan esadigan nam va iliq havo massalarini O'zbekiston hududiga o'tishga to'siqlik qiladi . Oqibat natijada O'zbekistonda subtropikka xos bo'lmagan landshaft vujudga kelib , yoz bulutsiz , seroftob bo'lib , jazirama issiq , quruq , qish esa shu geografik kenglik uchun ancha sovuq bo'ladi . O'zbekiston subtropik iqlim mintaqasida joylashsada , asosan cho'lga xos bo'lgan landshaft bilan tavsiflanadi . G'agat atrofi Tog'lar Surxon - Sherobod vodiysidagina quruq subtropik landshaft mavjud , xolos . Mamlakatimiz yer usti tuzilishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi . O'zbekiston hududining ko'p qismi (71 %) dehqonchilik uchun qulay vodiylar , tekisliklar va Tog oldi tekisliklaridan iborat , bu esa dehqonchilikning barcha tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi . Ma'lumki , O'zbekiston Yevroosiyo materigining deyarli qoq markazida va ARAN dunyo okeanlaridan ancha uzoqda joylashgan . Shu sababli dengizga tutash regionlarga xos bo'lgan barcha qulayliklardan respublikamiz mahrumdir . Demak , O'zbekistonning mavjud iqtisodiy - geografik o'mining barcha ijobiy va

salbiy .O'zbekiston ma'muriy-hududiy jihatidan 12 viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli sharqida bo'lib, $45^{\circ} 36'$ shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, $37^{\circ} 11'$ shimoliy kenglikda. Eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida bo'lib, $56^{\circ}00'$ sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa Farg'ona vodiysining sharqiy qismida, $73^{\circ} 10'$ sharqiy uzunlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan janubiy nuqtasi orasidagi masofa 925 km ga, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1400 km ga teng.



O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra O'rta dengiz bo'yidagi Ispaniya, Italiya, Gretsiya kabi mamlakatlar bilan taxminan bir geografik kenglikda joylashgan. Lekin O'zbekiston Yevrosiyo materigining ichki qismida okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi tufayli subtropik okrugdan farq qiladi. Buning ustiga Hind okeanidan kirib keladigan nam va iliq havo oqimlarini tog'lar to'sib turadi. Aksincha, shimoliy qismi ochiq bo'lganligi tufayli sovuq havo oqimi bemalol kirib keladi. Natijada, O'zbekiston subtropik mintaqada joylashsa-da, cho'lga xos bo'lgan tabiiy sharoit (yozi bulutsiz, serquyosh, jazirama issiq va quruq, qishi esa nisbatan sovuq) vujudga keladi. O'zbekiston chegarasining ko'p qismi tekisliklar, ozroq qismi adir va tog'lar orqali o'tadi. Respublikamiz shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, janubi sharqda Tojikiston bilan, janubi g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O'zbekiston Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan (Amudaryo orqali) chegaradoshdir. O'zbekiston maydoni 448,9 ming kv.km bo'lib, kattaligi jihatidan O'rta Osiyoda Qozog'iston va Turkmanistondan keyingi o'rinda turadi. O'zbekiston maydoni Yevropadagi Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekiston hududi Belgiya, Niderlandiya va Daniya kabi

davlatlarning yer maydonini qo‘shib hisoblasak ham, ulardan 4 marta, Shveysariyadan 10 marta, Belgiyadan 14 marta katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yermakov Y.G. i dr . Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov . M : Vasshaya shkola , 1988 .
2. Ryabchikov A.M. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov . M : Vasshaya shkola , 1988 .
3. Fizicheskaya geografiya mirovogo okeana . M : Izdatelpstvo Moskovskogo Universiteto , 1988 , Xogo okeana
4. Ryabchikov A.M. Dunyo qitoalari tabiiy geografiyasi , Toshkent , 1968 .
5. Vlasova T.M. Fizicheskaya geografiya materikov i okeanov . Tom I - II , M : Prosveo ' yeniye , 1976 .